

O'ZBEKISTONDA MINTAQAVIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Do'smatov Sobirjon Tursunovich

NamMTI magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining qo'shni davlatlari va jahonning yetakchi davlatlari bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlari, ular bilan aloqalarni yanada mustahkamlash, o'zaro ishonch, tinchlik siyosatini ilgari surish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ustuvor tamoyillar, siyosiy munosabatlar, qo'shnichilik siyosati, chegaralar, siyosiy ishonch.

Davlatimiz rahbari tomonidan, tashqi siyosiy faoliyatimizni ustuvor tamoyillaridan biri deb, birinchi navbatda, mintaqamizda, xususan, qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Respublikalari va Turkmaniston bilan hamda jahonning yetakchi mamlakatlari (Rossiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, shuningdek, Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharqdagi qator davlatlar) bilan ochiq, pragmatik va amaliy yondashuv asosida, ikki hamda ko'p tomonlama, barcha yo'nalishlardagi munosabatlarimizni rivojlantirish va kengaytirish belgilangan.

Bundan tashqari, 2020-yilda pandemiya oqibatida yuzaga kelgan xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, ayrim mintaqalardagi umumiy ahvol va davlatlararo munosabatlarning keskinlashishi tashqi siyosatimizdan yangi maqsad va yondashuvlarni talab etmoqda.

BMT da O'zbekistonning qo'shni mamlakatlarga nisbatan yangicha bo'lgan ochiq va yaxshi qo'shnichilik siyosati ijobjiy baholandı. Hatto mintaqaviy bahslarni hal etishda O'zbekiston tajribasidan foydalanish taklifi ham bildirildi. O'zbekistonning yangi mintaqaviy siyosatiga bo'lgan bunday baho O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yuritayotgan tinchliksevar va do'stona tashqi siyosati BMTning asosiy maqsadlari va vazifalari bilan hamohangligi bilan belgilandi.

Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida Markaziy Osiyo O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalish ekanini ma'lum qilgan. O'zbekiston yaqin qo'shnilariga nisbatan ochiq, xayriyoh va do'stona siyosatning qat'iy tarafdariligidcha qoldi.

Xorijiy ekspertlarning ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasining pragmatik va konstruktiv siyosati samarasida mintaqada juda qisqa vaqt ichida yangicha siyosiy reallik shakllandı. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar manfaatlarni o'zaro hisobga olish va hurmat qilish, ikki tomonlama ochiqlik va siyosiy ishonch singari xususiyatlar bilan sifatlana boshladi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida davlat chegaralarini delimitasiya va demarkasiya qilish masalalari bo'yicha ulkan kelishuvlarga erishildi. 2016 yilning avgustidan 2018 yil iyul oyiga qadar O'zbekiston hukumati delegasiyasi qo'shni mamlakatlar bilan jami 63, jumladan Qozog'iston bilan 17, Qirg'iziston bilan 27, Tojikiston bilan 9, Turkmaniston bilan 9 va Afg'oniston bilan 1 uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Bishkek shahriga uyushtirgan davlat tashrifi davomida "O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi davlat chegaralari to'g'risidagi shartnoma" imzolanishi chegarani delimitasiya va demarkasiya qilish, chegaraoldi muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston tomonidan Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududi haqida shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomaning imzolanishi Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi davlat chegarasini xalqaro-huquqiy

rasmiylashtirishning bosqichlaridan birini to‘la yakunlash imkonini beradi hamda uch mamlakat o‘rtasida o‘zaro hurmat, suveren tenglik va hududiy yaxlitlikni mustahkamlashda mustahkam asos yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Dushanbega uyuştirgan tashrifî doirasida “O‘zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining ayrim uchastkalari haqidagi shartnomâ” imzolandi. Bularning barchasi ikki tomonlama munozarali masalalarning hal etilishigina emas, butun mintaqâ kun tartibidan jiddiy nizoning olib tashlanishi va siyosiy ishonch darajasining oshishidir.

Nafaqat chegaraoldi muammolarning hal etilishi, balki, mintaqaviy hamkorlikning savdo, transport, energetika va xavfsizlik sohalari faollashuvi ham xalqaro hamjamiatning yuksak e’tiboriga sazovor bo‘lmoqda.

2017 yil may oyida O‘zbekiston Qozog‘iston Respublikasining Qo‘stanay shahrida «Ravon» rusumli avtomobilarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Joriy yilning iyul oyida O‘zbekistonning “Krantas grupp” mas’uliyati cheklangan jamiyati va Tojikistonning “Talko” alyuminiy kompaniyasi bilan hamkorlikda maxsus texnika ishlab chiqaradigan «Talko-Krantas» zavodi tashkil etildi. Qo‘shma korxonada avtokranlar, traktor tirkamalari, yarim tirkamalar va boshqa turdagî maxsus texnikalar ishlab chiqariladigan bo‘ldi.

Qirg‘izistonda O‘zbekistonning “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati qishloq xo‘jaligi texnikasi, avtomobilari, “Samavto” avtobuslari, “Artel” brendi ostidagi kir yuvish mashinalarini yig‘ishni tashkil etish to‘g‘risida dastlabki kelishuvga erishildi.

“Mamlakatimizda keyingi yillarda tashqi siyosat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, mamlakatimizning xalqaro maydondagi salohiyatini kengaytirishga va xorijiy davlatlar bilan keng qamrovli hamda o‘zaro manfaatlî aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Hozirda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston hayotining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va boshqa sohalarida muhim va dolzarb ulkan islohot hamda o‘zgarishlar izchil amalga oshirilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi, birinchi navbatda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi qo‘shni davlatlar bilan uzoq muddatli va manfaatlî munosabatlarni kengaytirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Mintaqada mutlaqo yangi, o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan siyosiy muhit va geosiyosiy reallik shakllanmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari yuzaga keladigan har qanday muammolarni tinchlik yo‘li bilan, muzokaralar asosida va o‘zaro manfaatlî tarzda hal qilish mumkinligini butun dunyoga namoyon etdilmoqda. Bunday yutuqning asosida, tabiiyki, mintaqâ davlatlari rahbarlari o‘rtasida siyosiy muloqot va o‘zaro ishonch yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qahramon Rajabov. Akbar Zamonov “O‘zbekiston tarixi” 2017
2. Uzavtoyul.uz
3. Uwed.uz
4. 1.Ziyonet.uz
5. 2.Aim.uz